



ACTIVITIES OF MADRASA IN TURKESTAN AT THE END OF THE 19TH AND THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURIES

Khusniddin Kholmatov

Base doctoral student

*International Islamic Academy of Uzbekistan
Uzbekistan, Tashkent*

ABOUT ARTICLE

Key words: Turkestan, Central Asia, madrasa, education, school.

Received: 23.12.24

Accepted: 25.12.24

Published: 27.12.24

Abstract: This article highlights the activities of madrasas operating in the territory of Turkestan at the end of the 19th and the beginning of the 20th centuries. It provides information on the impact of control and reforms implemented by the Russian Empire. The article objectively analyzes the role of madrasas in the social and cultural life of that period, as well as the factors that contributed to the decline in the quality of education.

XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON HUDUDIDAGI MADRASALAR FAOLIYATI

Xusniddin Xolmatov

tayanch doktorant

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
O'zbekiston, Toshkent*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Turkiston, O'rta Osiyo, madrasa, ta'lif, maktab.

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida faoliyat ko'rsatgan madrasalarining faoliyati yoritilgan. Rossiya imperiyasi tomonidan amalga oshirilgan nazorat va islohotlarning ta'siri haqida ma'lumotlar keltirilgan. Maqolada madrasalarining o'sha davrdagi ijtimoiy va madaniy hayotdagi o'rni hamda ta'lif sifatini pasaytirgan omillar xolisona tahlil etilgan.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МЕДРЕСЕ НА ТЕРРИТОРИИ ТУРКЕСТАНА В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ

Хусниддин Холматов

Базовый докторант

Международной исламской академии Узбекистана

Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Туркестан, Средняя Азия, медресе, образование, школа.

Аннотация: В данной статье освещена деятельность медресе, функционировавших на территории Туркестана в конце XIX - начале XX веков. Приведена информация о влиянии контроля и реформ, проводимых Российской империей. В статье объективно анализируется роль медресе в общественной и культурной жизни того времени, а также факторы, которые привели к снижению качества образования.

KIRISH

Madrasalar musulmon dunyosida oliy va o‘rta darajali o‘quv yurtlari sifatida faoliyat olib borib, ularning asosiy vazifasi ulamolar, mudarrislar, qozilar, masjid imomlari va davlat boshqaruvida faoliyat yurituvchi mutaxassislarini tayyorlashdan iborat bo‘lgan. Ushbu ta’lim muassasalarida Qur’oni karim, hadisi sharif, tafsir va fiqh kabi diniy ilmlar chuqur o‘rganilgan. Shu bilan birga, madrasalarda arab va fors tillari, adabiyot, falsafa, tarix, jug‘rofiya, matematika, tibbiyat, astronomiya kabi dunyoviy va tabiiy fanlar keng qamrovli o‘qitilgan. Bu esa madrasalarning faqat diniy ta’lim markazlari bo‘lmay, keng ilmiy-amaliy bilim beruvchi o‘quv yurtlari sifatida faoliyat yuritganligini ko‘rsatadi. Bugungi kunda ham madrasalarda diniy ta’lim bilan birga dunyoviy fanlar o‘qitilishi ularning tarixiy an’analarini davom ettirayotganining dalilidir.

Movarounnahr va O‘rta Osiyo, hozirgi Markaziy Osiyo hududi, qadimdan ta’lim va ma’rifatning rivojlangan mintaqalaridan biri bo‘lib kelgan. Bu yerda yashagan buyuk mutafakkirlar va olimlar ilmiy kashfiyotlari bilan nafaqat mintaqqa, balki butun jahon ilm-faniga ulkan ta’sir ko‘rsatgan. Xususan, Imom Buxoriy, Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy [13:105-110], Abu Ali Ibn Sino kabi buyuk olimlar shu hududdagi madrasalar va ilmiy muassasalarda ta’lim olib yetishgan. Ularning ilmiy merosi bugungi kungacha jahon ilm-fani uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

ASOSIY QISM

Turkiston madrasalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar orasida eng muhim manbalardan biri V.P. Nalivkinning “Turkiston o‘lkasidagi madrasalar tarixi” (История медресе в

Туркестанском крае) асаридир. Unda madrasalarning tashkil etilishi va faoliyatiga oid muhim ma'lumotlar keltirilgan bo'lsa-da, uning nazariy tahlil yondashuvi va mahalliy qadriyatlarni yetarli baholamasligi muammo sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, K.Y. Bendrikovning tadqiqotlarida madrasalarning ijtimoiy ahamiyati haqida ma'lumot berilgan, lekin ushbu tadqiqotlarda zamonaviy pedagogik yondashuvlar aks etmagan. Zamonaviy o'zbek olimlaridan O. Tangirov va D. Ziyayevalarning ishlarida madrasalarning mahalliy ta'lim tizimidagi o'rni va ular saqlab qolgan ilmiy meros haqida qimmatli tahliliy ma'lumotlar berilgan. Ushbu manbalarning tahlili shuni ko'rsatadi, madrasalarning diniy va dunyoviy fanlarga bo'lgan ta'sirini chuqur o'rganish uchun yana ko'plab ilmiy izlanishlar zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududidagi madrasalar faoliyati tarixiy va tahliliy yondashuvlar asosida o'rganildi. Asosiy usul sifatida hujjatlarni tahlil qilish usuli qo'llanilib, arxiv hujjatlari va madrasalarga oid ilmiy nashrlardagi ma'lumotlar o'rganildi. Madrasalar faoliyatining turli jihatlarini taqqoslash uchun solishtirma tahlil usuli qo'llanildi.

Yurtimizdagi ta'lim tizimining shakllanishida sug'd madaniyati va sug'd yozuvining ta'siri katta ahamiyat kasb etgan. Ushbu yozuvga asoslangan yodgorliklar, shuningdek, tarixiy va badiiy asarlar o'sha davrdan buyon Turkiston xalqlarining madaniyati va savodxonligini oshirishda beqiyos rol o'ynagan. Sug'd yozushi asosida yaratilgan yozma manbalar xalqlarimiz madaniy merosining muhim qismi bo'lib, ular uzoq asrlar davomida o'qimishli jamiyat shakllanishida mustahkam asos vazifasini o'tagan.

Turkiston hududidagi birinchi masjid va maktab VIII asrda Qutayba ibn Muslim tomonidan Buxoro arkida barpo etilgan [1: 26] bo'lib, bu joy ilgari zardushtiylar ehromi bo'lgan hudud sifatida ma'lum edi. Ushbu masjid va uning qoshida tashkil etilgan maktab diniy-ma'rifiy faoliyatning ilk namunalaridan biri sifatida tarix sahnasiga chiqdi. Keyinchalik, mintaqaning turli joylarida ko'plab masjidlar qurildi va ularning har biri qoshida maktablar faoliyat ko'rsatdi. Ushbu maktablarda yosh avlodning xat-savodini chiqarish, ularga islom dini asoslarini o'rgatish va jamiyatning ma'rifiy ehtiyojlarini qondirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu ta'lim maskanlarining tashkil etilishi Arab xalifaligidagi umumiy diniy-ma'rifiy an'analarning bir qismi bo'lib, masjid imomlari zimmasiga nafaqat ibodatga rahbarlik qilish, balki yoshlarga bilim berish, savod chiqarish va islom ahkomlarini o'rgatish vazifalari yuklatilgan edi. Shu tariqa, masjid va maktablarning uyg'unlashgan faoliyati Movarounnahr va umuman Turkiston hududining diniy-ma'rifiy markaz sifatida shakllanishiga xizmat qilgan.

Somoniylar davri (IX-X asrlar) Movarounnahr [14: 322-325] hududida ta'lim va madaniyat rivojida burilish yasagan davrlardan biri bo'lib, ayniqsa, madrasalar ilm-ma'rifat markazlari

sifatida shakllangan. Aynan shu davrda Buxoro “Islom olamining g‘arbidagi ilm va madaniyat markazi” sifatida tanilgan, bu esa uning ilmiy va ma’rifiy rivojlanishida tarixiy ahamiyatini oshirgan. Buxoro madrasalari fiqh ta’limi bilan mashhur bo‘lsa, Samarqandda astronomiya va tabiatshunoslik fanlari rivoj topgan. XIII asr mo‘g‘ullar istilosiga davri Movarounnahrda madrasalar faoliyatining pasayishi va ta’lim tizimining inqirozga yuz tutishi bilan ajralib turadi. XIV asrga kelib, ayniqsa Amir Temur davrida, madrasalar va ta’lim tizimi yana gullab-yashnash bosqichiga kirdi. Amir Temur istilo natijasida vayron bo‘lgan shaharlardagi madrasalarni qayta tiklashga kirishdi. Samarqand, Buxoro va Shahrabsabz kabi shaharlarda yirik madrasalar va kutubxonalar qurib, ularni ilm-fan markaziga aylantirdi.

XIX asrga kelib, Turkiston hududidagi madrasalar nafaqat diniy, balki dunyoviy ta’lim berishda ham o‘z faoliyatini davom ettirdi. Madrasalar bu davrda mintaqaning ta’lim tizimi va ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutgan ta’lim maskanlari bo‘lib, ular musulmon jamiyatining diniy-ma’rifiy talablarini qondirgan. Xususan, Buxoro va Samarqand shaharlari Turkistonning asosiy ilmiy-diniy markazlari sifatida tanilgan. Ushbu shaharlardagi madrasalarda Qur’on, hadis, fiqh, tafsir kabi diniy fanlar bilan birga, arab tili va fors tili adabiyoti, falsafa, mantiq, matematika va astronomiya kabi dunyoviy fanlar ham chuqur o‘rgatilgan.

Turkiston bu davrda Markaziy Osiyo mintaqasida islom markazi sifatida shakllangan edi. Bu holat mahalliy aholining ko‘philigi musulmonlardan iborat bo‘lishi va madrasalarning ta’lim berishdagi yuqori salohiyati bilan bog‘liq edi. Shu bilan birga, mahalliy aholining diniy hayoti faqat musulmonlar bilan chegaralanib qolmagan. Yahudiylar va boshqa kichik konfessional guruuhlar ham mintaqadagi madaniy va ijtimoiy muhitning bir qismi sifatida o‘z ibodatxonalariga ega bo‘lishgan. XIX asrda Rossiya imperiyasi istilosiga madrasalarning an’anaviy faoliyatiga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazdi. Rossiya hukumati mintaqada o‘zining siyosiy va ijtimoiy ta’sirini kuchaytirish maqsadida madrasalarning faoliyatiga turli cheklovlar kiritgan.

XIX asr oxirida Toshkent shahri Turkiston general-gubernatorligining ma’muriy markazi sifatida mintaqaning eng yirik shaharlari qatoriga kirgan. 1897-yilgi Rossiya imperiyasining birinchi rasmiy aholi ro‘yxatiga ko‘ra, Toshkentda taxminan 100 mingdan 156 minggacha[2] aholi istiqomat qilgan. Toshkentning umumiy aholisi tarkibi turli millatlar va diniy guruhlardan iborat edi. Ularning aksariyati o‘zbeklar, qozoqlar, tojiklar va tatarlar kabi mahalliy musulmon aholiga tegishli bo‘lib, ular shaharning 85 %ini tashkil etgan[3]. Shuningdek, rus aholisi 23 ming[4] kishi yoki shahar aholisining 14,8 %ini tashkil qilgan.

Bu davrda shaharning demografik o‘sishi va aholining milliy tarkibidagi o‘zgarishlar Rossiya imperiyasining Toshkentni bosib olishi (1865-yil) va uning mintaqadagi ma’muriy markazga aylanishi bilan bevosita bog‘liq edi. Rossiya hukumati tomonidan qurilgan infratuzilma va iqtisodiy imkoniyatlar rus va boshqa noislomiy aholi vakillarining shaharga ko‘chib kelishini

rag‘batlantirgan. Toshkent aholisi tarkibidagi milliy va diniy xilma-xillik mahalliy ijtimoiy tuzilmaga yangi qirralar qo‘shdi. Ayrim hollarda bu ziddiyatlarga sabab bo‘lgan bo‘lsa-da, bu holat mahalliy madaniyat va iqtisodiy hayotning boyishiga ham xizmat qilgan.

Toshkent shahridagi [15: 137-143] madrasalar haqidagi ma’lumotlar, xususan, arxiv hujjatlari, o‘sha davr matbuot materiallari hamda shaharni o‘rgangan rus o‘lkashunoslari asarlarida turlicha qayd etilgan. Ayniqsa, madrasalar soni borasida ma’lumotlar bir-biridan farq qiladi. Masalan, 1865-1868 yillarda Toshkentda bo‘lgan A.Xoroshxin o‘zining “Очерки Ташкента” nomli kundaligida ayrim madrasalarning nomlari va vaqf mulklari haqida ma’lumot bergan bo‘lsa, N.Maev 1876-yilda Toshkentda jami 11 ta madrasa[5] mavjudligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, “Туркестанские ведомости” gazetasining 1876-yil 48-sonida bosilgan rasmiy ma’lumotda esa shahar hududida 13 ta madrasa mavjudligi ko‘rsatilgan[6].

Umuman olganda Turkiston general-gubernatorligi Maorif boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, 1890-1893 yillarda gubernatorlikda jami 214 ta Madrasa bo‘lib, shundan 21 tasi Toshkentda joylashgan Toshkent shahrida o‘rta asrlardan boshlab Samarcand, Buxoro va Xiva shaharlaridagi singari ko‘plab madrasalar faoliyat ko‘rsatib kelgan. Biroq, zilzilalar va turli tarixiy davrlardagi, xususan, sobiq sovet tuzumi davridagi shaharning kengaytirilishi va ta’mirlash jarayonlari natijasida ko‘plab madrasalar yo‘qotilgan. Saqlanib qolgan madrasalar esa bir necha bor qayta ta’mirlanib, qayta qurilgan holda bugungi kungacha yetib kelgan.

Samarqand shahri 1868-yilning 8-may kuni Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olindi. Kaufman boshchiligidagi Rossiya qo‘sishlari Samarcandni Buxoro amirligidan tortib oldi. Bu bosqin Turkistonning qolgan qismini egallash yo‘lidagi muhim strategik qadam edi. Rossiya imperiyasining asosiy maqsadi Mavarounnahr mintaqasini to‘liq nazoratga olish va siyosiy, iqtisodiy ustunlik o‘rnatish edi. Samarcand o‘sha davrda Buxoro amirligi tarkibida bo‘lgan bo‘lib, bosqindan so‘ng Rossiya imperiyasi uni o‘zining harbiy-siyosiy nazorati ostiga oldi. Samarcand Rossiya imperiyasining ma’muriy hududiy bo‘linmalaridan biriga aylantirildi va keyinchalik Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi. Shaharning aholisi haqida aniq statistik ma’lumotlar cheklangan.

XX asr boshlarida, ya’ni 1903-1905-yillar oraliq‘ida Samarcanddagi demografik holat ma’lum darajada o‘zgaruvchan bo‘lgan. Bu o‘zgarishlar, bir tomondan, tabiiy demografik o‘sish tufayli yuzaga kelgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, Rossiya imperiyasi tomonidan olib borilgan siyosiy va ma’muriy islohotlarning ham ta’siri sezilgan. Aholi sonidagi o‘zgarishlar Arxiv ma’lumotlari quyidagicha ko‘rsatib o‘tilgan[7]:

| Yil | Erkaklar soni | Ayollar soni | Jami |
|------|---------------|--------------|---------|
| 1903 | 198 022 | 154 089 | 352 111 |
| 1904 | 202 043 | 157 171 | 359 214 |
| 1905 | 205 984 | 160 315 | 366 299 |

Arxiv ma'lumotlarida qayd etilgan noaniqliklar tarixiy jarayonlarning aniq va izchil tahlilini amalga oshirishda muayyan murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Xususan, aholi sonini aniqlashda din va etnik mansublik jihatidan to'liq farqlash amalga oshirilmagani, ya'ni musulmon aholisi yoki boshqa konfessional guruh vakillari sonining alohida hisobga olinmagani, statistik ma'lumotlarning to'liq bo'lmasligiga olib kelgan. Bu esa tadqiqotchilar uchun tarixiy jarayonlarni ob'yektiv baholashni qiyinlashtiradi. Shuningdek, o'sha davrda ma'muriy hududlarning chegaralarida ro'y bergan o'zgarishlar ham aholi soni to'g'risidagi statistik ko'rsatkichlarga ta'sir qilgan bo'lishi ehtimoli yuqori. Bir hududning boshqa ma'muriy birlik tarkibiga qo'shilishi yoki ajralib chiqishi natijasida aholi sonidagi o'zgarishlar sun'iy ravishda oshib yoki kamayib ko'rinishi mumkin. Shu sababli, tarixiy demografik o'zgarishlarni o'rganishda bunday ma'lumotlarning kontekstual tahlilini amalga oshirish, statistik nomuvofiqliklarning sabablarini aniqlash va ularni tarixiy jarayonlar bilan bog'lash zarur bo'ladi. 1892-1893 o'quv yilida Samarqand viloyatida 58 ta madrasa[8] faoliyat olib borganligi qayd etilgan. Ushbu davrda Samarqand viloyati ilmiy-diniy markaz sifatida o'zining an'anaviy ta'lim tizimini saqlab qolgan bo'lib, madrasalar musulmon aholining asosiy diniy va ma'rifiy ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynagan. Keyingi yillarda madrasalarning soni kamaygan. Sababi madrasalarning asosiy daromad manbai bo'lgan vaqf yerlarining Chor Rossiya hukumati tomonidan musodara qilinishi ularning iqtisodiy ahvolini yomonlashtirdi.

Rossiya imperiyasi istilosidan oldin, Buxoro amirligi diniy jihatdan musulmon davlatlaridan biri hisoblangan va u islom dinining asosiy markazlaridan biri bo'lib, katta diniy nufuzga ega edi. Rossiya istilosidan oldin Buxoroda musulmon bo'limgan konfessiyalar ham mavjud bo'lgan, ammo ular kichik diniy jamoalar sifatida faoliyat yuritgan. Buxoro yahudiylari alohida jamoa sifatida yashab, hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullangan. Yahudiylar o'zining Buxoro sinagogasiga ega bo'lib, diniy amallarni ado etishgan. Tarixan bu hududda islomdan oldin zardushtiylik e'tiqodi bo'lgan. Garchi XIX asrga kelib zardushtiylarning ko'pchiligi yo'q bo'lsa-da, ularning madaniy izlari saqlanib qolgan edi. Buxoroda juda kichik xristian jamoalari mavjud bo'lgan. XIX asrning o'zida Buxoro amiri tomonidan hududda 60 dan ortiq[9] madrasa qurilgan. Rossiya imperiyasining mamlakatga 1866-1868 yillardagi harbiy yurishlaridan so'ng amirlikning imperiya qo'shinlari tomonidan bosib olinishi natijasida tuzilgan 1868-yildagi Rossiya-Buxoro suhb bitimiga ko'ra, mamlakat siyosiy mustaqillik va hududiy yaxlitlikdan mahrum etilib, Jizzax, Kattaqo'rg'on, O'ratega, Samarqand hududlarini Turkiston general-gubernatorligi tasarrufiga o'tishiga asos bo'ldi, Buxoro amirligi o'z siyosiy mustaqilligini yo'qotib, vassal mamlakatga aylanib qoldi. Buxoro amirligi faoliyatini nazorat qilib turish uchun tashkil etilgan Rossiya imperiyasining Buxorodagi siyosiy agentligi katta mavqega ega bo'lib, mamlakat ichki masalalariga ham bevosita aralashish vakolatiga ega edi.

O'sha davrdagi boshlang'ich an'anaviy maktab musulmon bolalari uchun umumiylumot beradigan xat-savod chiqarish maskanlari bo'lib, arab imlosida savod olish, yozish va o'qish ko'nikmalarini shakllantirish hisoblash qoida va ko'nikmalarini hosil qilish, tabiat va jamiyat, atrof-muhit, islom dini haqida bilim va tushunchalar berish, axloq-odob meyorlariga amal qilishni o'rgatishdan iborat edi. XIX asrning 20-yillariga kelib, Buxoroda Rossiya fuqarolari bo'lган 3000 ga yaqin tatarlar istiqomat qilgan. Ulardan 300 nafari diniy bilim olish maqsadida Buxoroga kelgan. XIX asrning oxirida Buxoro amirligida 170 ga yaqin katta va kichik madrasalar faoliyat yuritgan. Ushbu ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni 10 mingga yaqin bo'lган. Bu holat Buxoroning xalqaro ilmiy markaz sifatidagi mavqeini yanada mustahkamlagan. Tatarlar Buxorodan olgan diniy ta'limni Rossiya hududlarida yoyishda muhim rol o'ynagan, xususan, Tatariston, Qozon va boshqa musulmon aholi yashaydigan hududlarda madaniy va diniy uyg'onish harakatlarining rivojlanishiga hissa qo'shgan. Rus sayyohi N. Xanikovning ma'lumotlariga ko'ra, XIX asrning 40-yillarida Buxoro shahrida amir ro'yxatida ko'rsatilgan 103 ta madrasa mavjud bo'lган. Ularning ichidan 60 tasi eng katta va nufuzli madrasalar hisoblangan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'rta Osiyo madrasalari o'quv dasturi birmuncha isloh etilib, ularda o'qitiladigan fanlar tarkibiga turk, rus, fransuz, ingliz tillari, fizika, ziroatchilik, hisob, gigiyena, psixologiya, metodika, trigonometriya, siyosiy iqtisod, tijorat kabi fanlar kirib kela boshlagan. XX asrning ikkinchi choragi boshlarida sovet hukumati tomonidan madrasalar diniy muassasalar qatorida davlatdan ajratilgan va «xurofot o'choqlari» tamg'asi bilan ba'zi madrasalarning faoliyati tugatib yuborilgan.

XULOSA

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududidagi madrasalar diniy ta'lim va madaniy merosni saqlashda muhim rol o'ynagan bo'lsa-da, ularning ta'lim tizimi bir qator muammolarga duch kelgan. Asosiy darsliklarning eskirganligi, dunyoviy fanlarga e'tiborning yetarli emasligi, pedagogik uslublarning yo'qligi va moliyaviy cheklovlar ta'lim sifatini pasaytirgan. Shu bilan birga, Rossiya imperiyasi tomonidan olib borilgan nazorat va islohotlar madrasalarning an'anaviy vazifasini cheklagan.

Shu nuqtai nazardan, mazkur davrdagi madrasalar asosan diniy fanlarni chuqr o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, ular zamonaviy talablarga javob beradigan ilmiy markazlarga aylana olmagan. Shunga qaramay, ushbu muassasalar o'z davrida diniy ta'limni saqlash va rivojlantirishda, shuningdek, ilmiy merosni keyingi avlodlarga etkazishda muhim rol o'ynagan. Turkiston madrasalarining faoliyatini o'rganish tarixiy ta'lim tizimlarining rivoji va ularning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini anglash uchun dolzarb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xayitmetov A. Movarounnahrning islomlashuvi tarixi. Toshkent: Fan, 1996. - B. 26.

2. Shoniyozov, K. Mavarounnahr va islom tarixi. Toshkent: Fan, 1989. – B. 39.
3. . Gibb, H. A. R. *Studies on the Civilization of Islam*. Princeton University Press, 1982. – B. 89.
4. Ismoilova J. XIX asrning ikkinchi yarmi- XX asr boshlarida Toshkentning “yangi shahar” qismi tarixi. –T.: “Fan va texnologiya”, 2004. B.12.
5. Sultonov O‘. XIX asr Toshkent madrasalari holati // O‘zbekistan tarixi. 2005. №3. –B. 64
6. Boltaboyev S. Turkistondagи vaqf mulklari tarixi. – Namangan: “Namangan” nashriyti, 2005. – B. 94.
7. O‘zMA, I 18-fond, 1-ro‘yxat, 6491-ish, 8-varaq.
8. O‘zMA, I 8-fond, 3-ro‘yxat, 61-ish, 19-varaq.
9. Djurayev. D. Turkiston an’naviy maktablari faoliyati tarixidan (XIX asr ikkinchi yarmi). // “Zamonaviy ta’lim” / “Sovremennoye obrazovaniye” ilmiy-amaliy jurnalı, 2017 yil. 7-son.
10. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. – T.: Sharq, 1998.
11. Ziyayeva D. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent shahridagi nomusulmon diniy kofessiyalar // O‘zbekiston poytaxti Toshkent 2200 yoshda. Toshkent shahrining 2200 yillik yubileyiga bag‘ishlangan Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – T.: Fan nashriyoti, 2009.
12. Kattayev K. Samarqand madrasalari va ilmu fan rivoji. – Samarqand: Zarafshon, 2003.
13. Mukhamedov, N., & Turambetov, N. METHODOLOGIES EMPLOYED BY AL BERUNI IN THE ANALYSIS OF RELIGIOUS SYSTEMS // Asian Journal of Multidimensional Research ISSN: 2278-4853 Vol. 12, Issue 12, December 2023 SJIF 2022 = 8.179 -P.105-110.
14. Mukhamedov, N., & Turambetov, N. (2023). HUMANISTIC IDEAS: KINDNESS, GENEROSITY, AND TOLERANCE IN THE WORK OF MAVERANNHAR SCIENTISTS. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 8(12), 322-325.
15. Mukhamedov Nematullo (2020). Medieval Scientists Of The Oasis Shash And Their Contribution To Islamic Civilization // The American Journal of Social Science and Education. Innovations (ISSN – 2689-100x). Published: August 14, 2020 | Pages: 137-143. Doi: <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume02Issue08-20>